



ALISHER NAVOI'S SOCIO-ANTHROPOLOGICAL VIEWS AND THEIR IMPORTANCE IN THE EDUCATION OF YOUTH

Anorgul Akhtamovna Gulova

Doctoral student of Andijan State University

gulovaanorgul2@gmail.com

Andijan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Mutakallim, spirituality, enlightenment, thought, society, justice, faith, education.

Received: 22.08.25

Accepted: 23.08.25

Published: 24.08.25

Abstract: This article analyzes the human problem in the socio-anthropological views of Alisher Navoi. In his spiritual heritage, Hazrat Navoi dwells extensively on the self, emphasizing the need to restrain it as much as possible and move towards the path of guidance. This is because in this world of testing, whether we submit to or overcome our self determines whether we will receive punishment or reward.

ALISHER NAVOIYNING IJTIMOIIY-ANTROPOLOGIK QARASHLARIDA NAFSNI TIYISH MASALASI

Anorgul Axtamovna Gulova

Andijon davlat universiteti doktoranti

gulovaanorgul2@gmail.com

Andijon, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: nafs, ma'naviyat, ma'rifat, tafakkur, jamiyat, ta'lim, adolat, e'tiqod, sabr.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning ijtimoiy-antropologik qarashlarida nafsni tiyish masalasi tahlil qilingan. Hazrat Navoiy o'z ma'naviy merosida nafs haqida keng to'xtalib, uni imkoni boricha mahkam jilovlab, hidoyat yo'li sari harakat qilish lozimligini ta'kidlaydi. Sababi bu imtihon dunyosida nafsga tobe bo'lishimiz yoki uning ustidan g'olib bo'lishimiz bizning jazo yoki mukofot olishimizni belgilab beradi.

СОЦИАЛЬНО-АНТРОПОЛОГИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ АЛИШЕРА НАВОИ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В ОБРАЗОВАНИИ МОЛОДЕЖИ

Аноргул Ахтамовна Гулова

Докторант Андижанского государственного университета

gulovaanorgul2@gmail.com

Андижан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Мутакаллим, духовность, просвещение, мысль, общество, справедливость, вера, образование.

Аннотация: В данной статье анализируется проблема человека в социально-антропологических взглядах Алишера Навои. В своём духовном наследии Хазрат Навои много внимания уделяет самости, подчёркивая необходимость максимально её сдерживать и следовать по пути руководства. Ведь в этом мире испытаний именно от того, покоришься ли себе или преодолеешь себя, зависит, получим ли мы наказание или награду.

Kirish. Sharq mutafakkirlari merosida insonning ma'naviy-axloqiy kamoloti eng asosiy g'oyalardan biri sifatida e'tirof etilgan. Ayniqsa, tasavvuf falsafasi va adabiy merosda nafsni tiyish, uni tarbiyalash masalalari insonning komillikka erishishi yo'lida hal qiluvchi omil sifatida talqin etiladi. Bu borada Alisher Navoiy ijodi alohida ilmiy va ma'naviy ahamiyatga ega bo'lib, unda nafs ustidan g'alaba qozonish nafaqat shaxsiy barkamollik, balki jamiyatda ijtimoiy muvozanat, adolat va ma'naviy uyg'unlikni ta'minlovchi tamoyil sifatida izohlanadi.

Navoiy nazdida inson o'z nafsini jilovlash orqali ma'naviy poklanishga erishadi, bu esa uni jamiyatda faol, adolatparvar va barkamol shaxs sifatida shakllantiradi. Uning asarlarida ilgari surilgan ijtimoiy-antropologik qarashlar nafaqat tarixiy-madaniy kontekstda, balki bugungi globallashuv davrida ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Shu jihatdan, Navoiy ta'limotida nafsni tiyish masalasini o'rganish zamonaviy ijtimoiy taraqqiyot va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Hazrat Navoiy o'z asarlarida nafs haqida keng to'xtalib, uni imkoni boricha mahkam jilovlab, hidoyat yo'li sari harakat qilish lozimligini ta'kidlab quyidagilarni bayon qiladi:

Emas ul pahlavonki, o'z qadrin

Bosh uzra eltibon nigun qilg'ay.

Paxlavon oni bilki, yetsa g'azab

Nafsi ammorani zabun qilg'ay[1].

O'z raqibini boshida gir aylantirib, keyin yer bilan bitta qilgan insonni pahlavon deb tushunma. Balki, g'azabi kelganida nafsining yomon istaklari ustidan g'olib kelgan shaxsni asil paxlavon deb angla. Zero, Qur'oni Karimning Noziot surasi 40-41-oyatlarida aytilganidek, “ ...

kimki Parvardigorining (huzurida) turishi (va hisobot berishi)dan qo'rqqan va nafsini havolanishdan qaytargan bo'lsa, bas, faqat jannatgina (unga) joy bo'lur[2].

Metod va metodologiya. Mazkur maqolada ilmiy bilishning tarixiylik, ilmiy xolislik, mantiqiylik va vorisiylik, qiyosiy-tipologik, germenevtika, analiz, sintez singari usullaridan foydalanilgan.

Muhokama va natijalar. Alisher Navoiy nafs to'g'risida shunday deydi:

Qaysi ishdinkim, yetar nafsingga kom,

Topar ondin komini shayton mudom[1].

Qaysi bir amaldanki, nafsing rohatlansa, shundan shaytoni lainning muddaosi amalga oshadi.

Hirs o'tidin bo'lma dardparvar oxir —

Kim, nafsga hirsdin yetar dard oxir[1].

Vujudingga hayvoniy his bo'lgan hirsdan xastalik yuzaga keladi, shunday ekan, hirs dardiga giriftor bo'lma. Alisher Navoiy bu bilan insonning boshiga qanday musibat kelsa, uning nafsidan kelishi, odam bolasi o'ziga o'zi zulm qiluvchi ekanliga ishora qiladi. Mazkur g'oya muqaddas manba Qur'oni Karimning Yunus surasi 44-oyatidagi fikrlar bilan hamohang:

“Albatta, Alloh odamlarga biror narsada zulm qilmaydi. Lekin odamlar o'zlariga zulm qiladilar”[2].

Hirs ofatini nafs havosi bilgil,

Ko'ymoq ani nafs muddaosi bilgil,

Nafsingga alam hirs balosi bilgil,

Kechmak mundin aning davosi bilgil.

Hirs balosini nafs havosi deb bil. Nafsning maqsadi hirsni hukmron etish. Hirsni jilovlash nafsga alamdir. Hirsni taslim qilish nafs ustidan g'alaba qilishdir.

Hargiz bo'lmas johu diram zori aziz,

Jon naqdi berib, siym xaridori aziz[1].

Mol-dunyoning asiri bo'lgan, o'z jonini garovga qo'yib, moddiy ne'matlarga xaridor bo'lgan odam hargiz qadrli bo'lmaydi. Darhaqiqat, bu dunyoda mol-mulk birlamchi emas. Undanda yuqori qiymatga ega bo'lgan ne'matlar bor. Sog'lik, tinchlik-xotirjamlik, o'zaro hurmat, mehr-oqibat kabilar shular jumlasidandir. Shunday ekan inson muqaddas dinimiz ko'rsatgan yo'l-yo'riqlar – tabiiy qonuniyatlar asosida ish ko'rmog'i lozim.

Andinki nafs komidur, nafsoniyat maqomidur[1].

Faqat o'z shaxsiy manfaatlarini ko'zlovchi odam — dushmanlik o'chog'idir. Shu bois nafaqat shaxsiy manfaati, shuningdek, jamiyat foydasini ko'zlab, o'zidan yaxshi nom qoldirishga harakat qilgan holda ish ko'rish lozim.

Aqlu hikmat ishidur bo'yla maoshu oyin,
Qayda topqay muni har nafsparastu xudbin[1].

Aqlu hikmat insonga shu qadar ziynat beradiki, bu ne'matga hech bir nafsparastu xudbin erisholmaydi.

Boy emas ulki, mol kasratidin
Ko'rmagay foqau talab ranjin.
Oni bilkim, Xudoy bermish anga
Nafsi ammora tarkini ganjin[1].

Moddiy boyligining serobligidan hech bir narsaga muhtojlik qiyinchiligiyo nochorlikni boshidan o'tkazmagan odam boy emas. Aksincha, Alloh shayton vasvasasidan saqlab, nafsning har turli istaklaridan xoli bo'lish baxtini ato etgan insonni boy-badavlat deb bil.

Judeki, xirad buyursa, tobe bo'lg'il,
Nafs aylasa buxp, mar'ig'a mone' bo'lg'il,
Ozu ko'p aro so'zumga some' bo'lg'il,
Ko'p bergil-u, ozg'a lek qone' bo'lg'il[1].

Aqling xayr-ehson, saxiylik amallariga da'vat qilsa, uning ushbu buyrug'iga so'zsiz bo'ysun, nafsing faqat o'zini o'ylab, xasislikni xoxtas, ushbu xoxishiga qarshilik ko'rsat. Ko'pu oz bo'yicha mening bu gapimga quloq tut: o'zing ko'p ber-u, ammo kamga qanoat qil. Zero, Hadisi Sharifda ta'kidlanganidek, "O'ng qo'l bilan bergan xayringizni chap qo'l sezmasin"[3]. Ya'ni Alloh roziligi uchun amalga oshirilgan xayrli ish faqatgina ungagina ayon bo'lishi lozim.

Muqaddas manba Qur'oni Karimning Tag'obun surasi 16-oyatida ham nafs to'g'risida quyidagilar bayon qilinadi: Bas, toqatlaringiz yetganicha Allohga taqvoda bo'lingizlar, (nasihatga) quloq tutingizlar va itoat etingizlar hamda ehson qilingizlar, (mana shu) o'zlaringiz uchun yaxshiroqdir. Kimki o'z nafsining baxilligidan saqlana olsa, bas, aynan o'shalar iqbollidirlar[2]. Demak, inson har ikki dunyo saodatiga erishishi uchun o'zini doimo nazorat qilishi, nafsini jilovlashi lozim ekan.

Nafsdin sanga zulm yetsa, nadomat eshikin och va Tengri panohiga qoch va tavba etokiga ilik ur, ul tavba ustida mardona tur[1].

Agarda nafsingni jilovlay olmay, undan jabr ko'rsang, afsus-nadomat eshigini ochib, Xudodan panohida olishini iltijo qil hamda tavba-tazarru etagidan mahkam ushla, tavba qildingmi, bundan keyin qaroringdan voz kechmay, o'zingga hushyor bo'l.

Alisher Navoiyning mazkur fikrlari Qur'oni Karimning Yusuf surasi 53-oyati mazmuniga hamohang: "Nafsimni oqlamayman. Zero, nafs -agar Rabbim rahm aylamasa - faqat yomonlikka qistovchidir. Albatta, Rabbim kechirimli va rahmlidir"[2]. Yuqoridagi mulohazalardan shuni

anglash mumkinki, nafs bu shaytondir. U doimo bizni to‘g‘ri yo‘ldan adashtirishga harakat qiladi. Mutaxassislarning fikricha, inson ongida bir kunda yuz mingdan ortiq fikrlar aylanar ekan. Afsuski, bu fikrlarning aksariyati salbiy o‘y-xayollardir. Bizning vazifamiz mana shu shayton tomonidan tashlanuvchi negativ fikrlarni qabul qilmay, qat’iy reja asosida harakat qilib, ularni haydashdir.

Nafs uyiga sabr ila imorat angla,
Besabrlig‘in aning sharorat angla,
Ish sabr sori anga ishorat angla,
Sabrni zafar sori bashorat angla[1].

Nafs uyini sabr negiziga barpo et, uning sabrsizligini yomonlik deb bil, unga sabrli bo‘lishga ishorat et hamda sabrni g‘alaba tomon bashorat deb bil. Alisher Navoiy sabrlilikni nafsni yengishning asosiy yechimi deb biladi.

Darhaqiqat, sabr oriflar uchun ham muhim maqomlardan sanalgan. Sababi sabrda sobit bo‘linmasa orif niyat qilgan Alloh jamoliga yetishish to‘g‘risida so‘z bo‘lishi mumkin emas. Sabr talabi hisoblangan nafsning ikkita turi bo‘lib, ularning birinchisi taom nafi bo‘lsa, ikkinchisi hirsiy nafsdur. Tabiiyki, orif bulardan qat’iy tiyilishi lozim. Xususan, oziq-ovqat nafi muhim ahamiyatga egadir. “Nasoyim ul-muhabbat” asarida Navoiy Shayx Abulhasan Xaraqoniy (v.1034 y.) to‘g‘risida quyidagilarni bayon qiladi: “... debdurki, qirq yildurki, nafs bir ichgucha sovuq suv va achchiq dug‘ tilar. Hanuz anga bermaydurmen”[4]. So‘fiylik yo‘liga qadam qo‘ygan inson sabridan jamiyatdagi boshqa kishilar sabri orasidagi tafovut shundan iboratki, oddiy insonlar sabr qilishni majburiyat deb bilsa, so‘fiy ushbu qiyinchiliklardan iborat yo‘lni anglagan holda ixtiyoran qabul qiladi. Orif uchun esa sabr ixtiyoriy hayot tarzidir. U bu yo‘lda sabr-qanoatning jamiki majburiyatlariga hozir bo‘ladi.

“Nasoyim ul-muhabbat” asarida Jaloliddin Rumiy haqida so‘z yuritilib, u kishining hayot tarzi haqida quyidagi mulohaza keltiriladi: “...xodimdin so‘rsalar erdiki, uyda hech nima bormu? Agar desa (xodim) erdiki, yo‘qtur, munbasit bo‘lub, shukr qilurlar erdi va derlar erdiki, bu kun bizning uy payg‘ambar uyiga o‘xshar”[5].

Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”da sabrga maxsus bob ajratib, shunday deydi: “...Sabr achchiq, ammo foyda beruvchi; u – qattiq, ammo ziyon-zahmatni daf etuvchi. Qaysi baxtsiz sabr etagini tutgan bo‘lsa, u oxiri o‘z murodiga yetadi; qaysi bir giriftor ko‘ngil sabr tugunini bo‘shatmagan bo‘lsa, uning baxt tuguni ochiladi. Sabr shodliklar kalitidir, bandlarni yechuvchidir. Sabr o‘rtoqdir, suhbat zeriktirarli, ammo maqsadga olib boruvchi; sabr ulfatdir, uzoqni ko‘zlagan; ammo oxirda istakka yetkazuvchi. Sabr ulovdir – sekin yuradigan, ammo manzilga eltuvchidir. Sabr – tuyadir – og‘ir qadam, lekin bekatga olib boruvchidir. Sabr – nasihatgo‘y, achitib

gapiradigan kishi tabiati undan ozor chekadi, lekin amal qilgan oxirda murodiga yetadi. Sabr – tabib, badxo‘r dori, bemor undan azob tortadi, ammo so‘nggida sog‘likka erishadi”[6].

Ushbu ta‘rifdan shuni anglash mumkinki, sabr ibtidosi qiyin va og‘riqli, lekin intixosi murodbaxsh yo‘ldir. Mazkur yo‘lda inson har tomonlama rivojlanib, ma‘naviy jihatdan yuksaladi.

Mutafakkir va mutasavviflar sabrning istilohiy mazmuni to‘g‘risida bir-birini to‘ldiruvchi mulohazalarni bayon qiladilar: “Rog‘ib: “Sabr nafsni aql va shariat taqozo qilganidek tutib turishdir yoki ikkisi taqozo qilgan narsadan tutib turishdir”, – degan. Munoviy: “Sabr hissiy va aqliy og‘irlik va alamlarga chidashdir“, – degan”[7].

Talabi qiyin holatlarda arz qilmaslik hamda yaxshi kunlarda Allohga shukronada bo‘lish bo‘lgan sabr irfoniy tushunchada kishining boshiga tushgan jamiki vaziyatlarni Tangri taolodan ekanligini tushunish, shu bilan birgalikda unga ko‘nish lozimligini bildiradi. Oliy mavjudot hisoblanmish insonga xos xislat bo‘lgan sabr uchun, dastavval, ma‘rifat va aql kerak. Ammo bu bir-birining zidi bo‘lgan kuchlarning g‘alabasidan yuzaga keladi. Shu ma‘noda Abdulla Avloniy sabr to‘g‘risida quyidagilarni bayon qiladi: “Sabr shunday bir kuchli narsadurki, shahvatni iffatga, g‘azabni shijoatga, shiddatni hilmga, manmanlikni tavozega, yomonlikni yaxshilikka aylantirmakka quvvati yetar”.

Quyidagi Hadisda shunday deyiladi: “Jannatning atrofi mashaqqat va mushulotlar bilan, jahannamniki esa orzuyu halovatlar bilan o‘ralgandir”.

Kubraviya tariqati asoschisi Shayx Najmiddin Kubroning ta‘kidicha, nafs birodarlik qilgan hamda istagan narsalarni unga hadya etmasdan, Qur‘on va Sunnat ahkomlari belgilab bergan yo‘ldan yurishda qat‘iyat ko‘rsatish darkor. Darhaqiqat, Parvardigor: “Ular (o‘z dinlari yo‘lidagi balo-kulfatlarga) sabr qilishgach, Biz ulardan (odamlarni) hidoyat qiladigan peshvolarni chiqardik. Ular oyatlarimizga puxta ishonar edilar” [2], deya xitob etadi.

Xulosa. Alisher Navoiy merosida nafsni tiyish masalasi insoniy kamolot va ijtimoiy barqarorlikning muhim sharti sifatida talqin etiladi. Mutafakkir qarashlarida inson o‘z nafsini jilovlash orqali ma‘naviy poklanishga, adolat va komillikka erishadi, bu jarayon esa jamiyatda uyg‘unlik va taraqqiyotni ta‘minlovchi asosiy omil sifatida ko‘riladi. Navoiy ta‘limotida nafs ustidan g‘alaba qozonish shaxsiy kamolot va ijtimoiy adolatni uyg‘unlashtiruvchi konseptual yondashuv bo‘lib, bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Mazkur g‘oyalarni ilmiy jihatdan tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, Navoiy nafaqat o‘z davri ijtimoiy-madaniy muammolariga javob bergan, balki zamonaviy inson tarbiyasi, ma‘naviy qadriyatlar shakllanishi va ijtimoiy ong rivojiga ham beqiyos hissa qo‘shgan. Demak, nafsni tiyish g‘oyasi Navoiy ta‘limotida shaxs va jamiyat taraqqiyotini uyg‘unlashtiruvchi umumbashariy qadriyat sifatida e‘tirof etilishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Alisher Navoiy insonni har kuyga solib, to'g'ri yo'ldan ozdirishga harakat qiluvchi nafsni doimiy nazoratga olish zarurligini ta'kidlab, bu yo'lda sabrdan qalqon sifatida foydalanish kerakligini uqtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ибратли ҳикоятлар ва ҳислатли ҳикматлар. –Тошкент: Сано-стандарт. 2016, – Б. 181; 201; 223.
2. А. Мансур. (тарж. ва изоҳ муаллифи). Қуръони Карим. – Б.431; 131; 395; 150; 278. www.ziyouz.com.
3. “Хожагон-нақшбандия тариқатининг жаҳон цивилизация тарихидаги ўрни” мазуидаги Республика илмий амалий анжумани. Бухоро, 2018. – Б. 81.
4. А.Навоий. Асарлар. 15 жилдлик, Ж. 15. –Тошкент: Бадиий адабиёт. 1968. –Б. 111.
5. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. МАТ.Ж.17. –Тошкент: Фан, 2001. – Б. 320. Иқтибос Абдуқодиров А. Тасаввуф ва Алишер Навоий ижодиёти. Филология.фанл. докт. илмий дараж. олиш учун ёзилган дисс. –Тошкент:1998. –Б. 237.
6. Навоий Алишер. Махбуб ул-қулуб. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983, –Б. 46.
7. https://telemetr.me/content/AAAAAEUy_jiMRc8TAopf_A/post/333/.
8. Sobirovich, T. B. (2025). The Development of Political Doctrines in the Context of Medieval Central Asian Civilization. Asian Journal of Basic Science & Research, 7(2), 16-24.
9. Sobirovich, T. B. (2021). The Strategy of Cultural Development in Central Asia During Amir Temur and the Timurids Dynasty. Int. J. Sci. Res. in Multidisciplinary Studies, 2021.